

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI**  
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**TARIX FAKUL‘TETI**  
**O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

*Qo‘lyozma huquqida*

4-kurs “D” guruhi talabasi

*Arslonov SHamsiyor Diyorbek o‘g‘li*

***O‘zbekiston Respublikasining EVROPA ITTIFOQI***  
***davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalariga doir***  
***(1992-2015 yillar)***

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta‘lim  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Ish rahbari:

**Dotsent. S.A. Xoshimov**

Andijon – 2016 yil

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3-6</b>
<b>I- BOB. O‘zbekiston Respublikasi va g‘arbiy Evropa mamlakatlarining ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalari.....</b>	<b>7-27</b>
<b>I.1. Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari.....</b>	<b>7-14</b>
<b>I.2 O‘zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi.....</b>	<b>15-19</b>
<b>I.3 O‘zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida g‘arbiy Evropa mamlakatlarining ahamiyati .....</b>	<b>20-27</b>
<b>II-BOB. O‘zbekiston Respublikasining g‘arbiy Evropa mamlakatlari bilan madaniy va ilmiy - texnikaviy aloqalari.....</b>	<b>28-45</b>
<b>II.1 Buyuk Britaniya Qirolligi va Fransiya Respublikasi bilan olib borilayotgan madaniy sohadagi o‘zaro aloqalar.....</b>	<b>28-35</b>
<b>II.2 O‘zbekiston Respublikasining g‘arbiy Evropa mamlakatlari bilan ilmiy – texnikaviy hamkorligi.....</b>	<b>36-45</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>46-47</b>
<b>Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati.....</b>	<b>48-52</b>
<b>Ilovalar.....</b>	<b>53-58</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, O‘zbekiston hukumati o‘z milliy manfaatlariga mos tashqi siyosat yo‘lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish va xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatishga eng dolzarb vazifalardan biri deb qaradi. O‘zbekiston tarixida birinchi marta tashqi siyosat asoslari va uning bosh yo‘nalishlari qonun yo‘li bilan mustaxkamlandi. O‘zbekistonning Oliy Kengashi Bayonotida “Xalqaro hamkorlikning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub’ekti sifatida qatnashadi. Uning asosiy maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol – yarog‘lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiq o‘tkazishga, eng avvalo harbiy kuch qo‘llashga yo‘l qo‘ymaslik, insoniyatning jahonshumul muammolarini hal etishda davlatlar hamkorligi va xalqlar birdamligidan iboratdir... O‘zbekiston Respublikasi oldindan hech qanday shart qo‘ymagan holda barcha sheriklar bilan bevosita teng huquqli, o‘zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o‘zini ochiq deb e‘lon qiladi”<sup>1</sup>, deyilgan.

Prezidentimiz O‘zbekistonning tashqi siyosati istiqbolini taoriflab shunday deydilar: “O‘zbekiston dunyo uchun ochiq, Biz ham dunyoning O‘zbekistonga katta qiziqish bilan qarayotganini his etmoqdamiz. Bir paytda O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga, markazga qaram izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi”<sup>2</sup>.

“Xalqaro hamjamiyatda katta aks sado bergan, 2012-yilning sentabr oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995 й. – Б. 67.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992 й. – Б. 35.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun asosida aynan ana shunday yondashuvlar mujassamdir.

Mazkur konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy prinsiplari, strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va O'zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomidir.

“O'zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo'lgan o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlagan holda: turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo'lishi haqida; o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qatoiy pozitsiyaga ega bo'lishi haqida va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi haqida; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplarini aniq-ravshan bayon etadi.

O'zbekiston mafkuraviy tamoyillar sababli ro'y berayotgan turli to'qnashuvlarga o'zining jalb etilishiga hamda qo'shni davlatlar va hududlar bilan chegaralardagi qurolli mojarolar va keskinlik o'choqlarida mamlakatimizning ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi, yaxshi qo'shnichilikning, yuzaga keladigan nizolarni faqatgina tinch yo'l bilan bartaraf etishning qatoiy tarafdoridir.”<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatida bu konsepsiyaga to'la amal qilmoqda, bu esa tashqi siyosatni ishonchli hamda samarali bo'lishini taominlamoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida O'zbekiston tashqi siyosatini ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- 1) tinchilik va havfsizlik uchun kurash;
- 2) umumbashariy muammolarni hal etishda ishtirok etish;
- 3) xalqaro vaziyatlarni sog'lomlashtirish uchun kurash;
- 4) davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va yanada takomillashtirish;

---

<sup>3</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон йўли – жаҳон ҳамжамиятига қўшилиш йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995 й. – Б. 42.

- 5) tashqi siyosatni mafkuradan holi etish asosida davlatlararo munosabatlardagi g‘oyaviy kurashdan voz kechish;
- 6) O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini taominlash.

O‘zbekiston mustaqillik tufayli umumjahon jarayonlariga qo‘shilib bordi. Chunki “mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog‘imiz uchun O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini taminlash zarur”<sup>4</sup>.

Mazkur btiruv malakaviy ishimizda O‘zbekistonning Evropa Ittifoki mamlakatlari bilan 1992-2015 yillardagi ilmiy, madaniy hamda iqtisodiy aloqalari batafsil yoritildi. SHuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik dasturlari, O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar va yurtimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rning ortib borishi o‘rganildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng Evropa Ittifoki mamlakatlari bilan zamonaviy iqtisodiy-siyosiy va madaniy hamkorliklari haqida prezidentimiz I.A.Karimov asarlari<sup>5</sup>, nutqlari, ma‘ruzalari, farmonlari va qarorlari, o‘zbek olimlaridan A. Azizxo‘jaev<sup>6</sup>, R. Hakimov<sup>7</sup>, A. Kasimov, I. Vaskin<sup>8</sup>, M. Lafasov<sup>9</sup>, X. Murodov, N. Muxammadiev, G. Jamolov<sup>10</sup>, A.X. Saidov<sup>11</sup> kabi olim va siyosiy arboblarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Mazkur masala bo‘yicha quyidagi chet ellik olimlar, siyosatchilar va xalqaro tashkilot vakillari: M. YU. Tixomirov<sup>12</sup>, F. Mayor<sup>13</sup>, L. Keren, X. Xukhem.

---

<sup>4</sup> Каримов И. А. Мақсадимиз – тинчлик, барқарорлик, ҳамкорлик. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995 й. – Б. 27.

<sup>5</sup> Президентимиз И.А.Каримов асарлари асосий адабиётлар рўйхатида келтирилган.

<sup>6</sup> Демократия халқ хоқимияти демақдир. – Т.: “Ўзбекистон” 1996.

<sup>7</sup> Ўзбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти, 2001.

<sup>8</sup> "Основные направления внешней политики Республики Ўзбекистан". – Т., 1994.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикасининг халқаро алоқалари. – Т., 1995.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Жаҳон Ҳамжамияти сафида. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти, 2000.

<sup>11</sup> Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Тўплам / Ўзбекча нашри – Тошкент: Адолат, 2004.

<sup>12</sup> Юридическая энциклопедия. –М.: 1998.

Bitiruv ishini yozish jarayonida qo‘shimcha ma’lumotlar olish uchun quyidagi internet saytlaridan foydalanildi: [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)<sup>14</sup>, [www.un.org](http://www.un.org)<sup>15</sup>, [www.tashkent.unesco.org](http://www.tashkent.unesco.org)<sup>16</sup>, [www.gov.uz](http://www.gov.uz)<sup>17</sup>, [www.ambafrance-uz.org](http://www.ambafrance-uz.org)<sup>18</sup>.

Biroq shuni ta’kidlash lozimki, mazkur mavzu O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shili va olib borayotgan tashqi aloqalari haqidaligi sababli, yuqoridagi manba va adabiyotlarda faqat muammoga oid aniq ma’lumotlar berilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar deyarli hisobot sifatida berilgan. Mazkur Bitiruv malakaviy ishimizda O‘zbekiston Respublikasining G‘arbiy Evropa mamlakatlari bilan 1992-2015 yillardagi hamkorlik aloqalari tarixi analitik tahlili, tarixiy xronologik tartibi, rivojlanib borish tendensiyasi va bu rivojlanishda mamlakatimizning o‘rni ilmiy jihatdan o‘rganildi.

#### **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:**

- O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan so‘ng olib borgan tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarining takomillashib borishi prinsplari aniqlangan;
- O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarini boshlanishi va uning sabablariga aniqlik kiritilgan;
- Mazkur jarayonni O‘zbekistonning iqtisodiy-siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun ta’siri va bu jarayonni takomillashib borishi tadqiq etilgan;
- O‘zbekiston va Evropa Ittifoqi davlatlari hamkorligining madaniy va kommunikatsion aloqalarining rivojlanib borish tendensiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan;
- O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan manosabatlarini takomillashtirish yuzasidan xulosalar, tavsiyalar, nazriy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

---

<sup>13</sup> Келажак хотираси. Т.: “Ўзбекистон”, 1996.

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi

<sup>15</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti veb-sahifasi

<sup>16</sup> BMTning Ta’lim, fan va madaniyat bo’yicha tashkiloti veb-sahifasi

<sup>17</sup> O‘zbekistonda Respublikasi hukumat portali.

<sup>18</sup> O‘zbekiston-Fransiya elchixonasi veb-sahifasi

# ***I- BOB. O‘zbekiston Respublikasi va g‘arbiy Evropa mamlakatlarining ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi hamkorlik aloqalari***

## ***I.1. Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari***

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlati sifatida geografik jihatdan Evropadan ancha yiroq joylashgan bo‘lsa ham, zamonaviy iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar natijasida Evropaga va Evropa Ittifoqiga tobora „yaqinlashib“ bormoqda. Evropa Ittifoqi bu hamkorlikka to‘g‘ri baho bergan holda, ayniqsa, 2001 yil 11 sentabrdagi terrorchilik harakatlaridan keyin O‘zbekistonga nisbatan yangi strategik hamkorlik dasturlari bilan javob bermoqda. Agar yaqin kelajakda Janubiy Kavkazdagi respublikalar Evropa Ittifoqi a‘zosi bo‘ladigan bo‘lsa, u holda Kaspiy dengizi Evropa Ittifoqining sharqiy chegarasini tashkil etadi va Markaziy Osiyo Evropaning bevosita qo‘shnisi bo‘lib qoladi.

Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan munosabatlarining 2001 yil 11 sentabrdan keyin qay darajada o‘zgarganligini o‘rganish jiddiy e‘tiborga sazovordir. Bu vazifani amalga oshirishda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan munosabatini YIning boshqa bir mintaqaga nisbatan bo‘lgan munosabati bilan qiyosiy o‘rganish muhim. Bu o‘rinda biz janubiy Kavkaz respublikalarini mintaqa sifatida ko‘zda tutmoqdamiz. Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlari qanday asosda qurilgan va hamkorlik qay darajada amalga oshmoqda? Evropa Ittifoqi tomonidan ilgari ham bir necha marotaba Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan hamkorlik loyihalari ishlab chiqildi, lekin bu loyihalar to‘liq amalga oshmadi, ba‘zilari esa hatto qog‘ozda qolib ketdi.

Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan qanday shartnomaviy-huquqiy hujjatlar asosida hamkorlik qilmoqda? Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati qay darajada amalga oshmoqda? Bu siyosat faqat

iqtisodiyot mojarolarini bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi yoʻnalishlar bilangina cheklanib qolmayaptimikan? SHu narsani taʼkidlash joizki, Markaziy Osiyoda havfsizlik va barqarorlikni saqlash - Evropa Ittifoqini sharqqa qarab kengaytirish kabi yaqin kelajakdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U holda yana bir savol tugʻiladi: Barqarorlikni saqlash zarur va muhim ekan, nega endi shu maqsadda Kavkaz davlatlari oʻrtasida barqarorlikni saqlash toʻgʻrisidagi bitimga oʻxshash bitimlarni Markaziy Osiyoda ham imzolash mumkin emas? Bu juda ham oʻrinli va maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Amerika Qoʻshma Shtatlari, Rossiya va Xitoy salohiyatli hamkorlar sifatida oʻz mavqeʻiga ega. Lekin Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mintaqasidagi imkoniyatlari cheklangan deb boʻlmaydi.

Kavkaz davlatlaridan keyin birin-ketin Markaziy Osiyo respublikalari ham Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimlarini imzoladilar. Ushbu bitimlar Evropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlik munosabatlari uchun umumhuquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda. Amalda qoʻllanilayotgan bitimlar asosida esa Hamkorlik Kengashlari tashkil etildi. Mazkur Hamkorlik Kengashlari tomonidan Evropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlikning borishi toʻgʻrisida muntazam ravishda anjumanlar oʻtkaziladi. Markaziy Osiyo davlatlari Kavkaz davlatlaridan farqli oʻlaroq, Evropa Ittifoqiga nisbatan munosabatlarda bir hil maqomga ega emas. Kavkazdagi barcha davlatlar Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik bitimini imzolaganlar, ratifikatsiya qilganlar va mazkur bitimlar kuchga kirgan. Bundan tashqari, Kavkaz davlatlari Evropa Ittifoqi kengashida qatnashish huquqiga ega. Bunday hamkorlik bitimlari Qirgʻizistonda (01.07. 1999), Qozogʻistonda (01.07.1999) va Oʻzbekistonda (01.07.1999) kuchga kirgan, lekin Turkmanistonda bu hujjat ratifikatsiya arafasida, ammo Tojikistonda bunday bitim imzolanishi hali taklif etilgani yoʻq.<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup> Oʻzbekistonda Respublikasi hukumat portali.



Bitimlarining asosiy maqsadi - siyosiy muloqotga erishish va ushbu dialog yordamida ikki tomonlama siyosiy munosabatlarni o'rnatish, demokratik qadriyatlar va bozor iqtisodiyotini shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yaratishdir. Bitimdagi moddalarda mintaqada iqtisodiy o't sohasida ijobiy natijalarga erishish, qonun chiqarish, moliya, fuqarolik huquqi, ilmfan, texnologiya va madaniyat sohalarida o'zaro hamkorlik qilish belgilab qo'yilgan. Evropa Ittifoqining tashabbusi asosidagi bu hamkorlik dasturlari Markaziy Osiyodagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, o'zaro iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi va nihoyat Markaziy Osiyo davlatlari va Evropa Ittifoqi birgalikda ko'proq muvaffaqiyatlarga e'rishadi. Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar Evropa Ittifoqi bilan Kavkaz davlatlari o'rtasidagi munosabatlardan farq qiladi. Chunki Markaziy Osiyo davlatlari kelajakda Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lishga da'vogar emas. Kavkaz davlatlari esa bunga da'vogar. SHu sababli Markaziy Osiyo mintaqasiga Kavkaz davlatlariga nisbatan kamroq moddiy yordam ajratilgan. Sobiq sovetlar Ittifoqi parchalanib ketganidan keyin Markaziy Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy „demodernizatsiya“ jarayoni boshlangan. Mintaqadagi davlatlar hamon o'tish holatidalar, vaholanki ba'zi sobiq Ittifoq davlatlari esa rivojlanish yo'liga o'ta olganlar. Evropa Ittifoqining har bir hamkorlik loyihasi ushbu o'ziga xos shartlarni amalga oshirishni taqozo e'tadi.

2001 yilning 11 sentabridan keyin Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash vazifasini o'z oldiga qo'yganligini kuzatish mumkin. SHu bilan birga AQSH mazkur mintaqaga nisbatan hafsizlikni ta'minlashda „qattiq“ siyosat tarafdori sifatida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, Evropa Ittifoqi esa hafsizlikni ta'minlashda „yumshoq“ siyosat yuritish tarafdori. Evropa Ittifoqining Kavkaz va Markaziy Osiyoda hamkorlik qilish vositasi sifatida asosan uchta dasturi amal qilmoqda, ya'ni: TACIS („Technical Assistance to the Commonwealth of Independent States«), INOGATE („Interstate Oil and Gas

Transport to Europe»), TRACECA („Transport Corridor Europe-Caucasus-Asia»). INOGATE va TRACECA – TACIS dasturining davomi hisoblanadi.<sup>20</sup>

Evropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar SHarqiy Evropa va Markaziy Osiyo uchun mablag' hamda texnik yordam ko'rsatuvchi asosiy donor hisoblanadilar. 1991 yildan 1999 yilgacha bo'lgan muddat ichida sharqiy Evropa va Markaziy Osiyo davlatlari TACIS dasturi orqali 4,226 mlrd. Evro miqdorida bozor iqtisodiyotiga o'tish va demokratiyaning barqaror bo'lishi uchun yordam oldilar. 2000-2006 yillar uchun bu mintaqaga 3,138 mlrd. Evro ajratilgan. Bundan tashqari Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari savdo-sotiq sohasida yaxshi hamkor hisoblanadilar. TACIS-dasturida barcha sobiq sovet ittifoqi respublikalari qatnashadilar. Dasturni amalga oshirishdan asosiy maqsad siyosiy- iqtisodiy jihatdan mazkur davlatlarga o'tish davrida ko'mak berish, demokratik tuzilmalarni barpo etishda yordam ko'rsatish va nihoyat, Markaziy Osiyo davlatlarining jahon bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlashdir. 90-yillarning boshida Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlari bilan dunyoning boshqa davlatlari o'rtasida ko'plab yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi va natijada ko'plab ikkitomonlama munosabatlar o'rnatildi.

1995 yil dekabr oyida Madridda yuqori darajadagi rasmiy uchrashuvlar o'tkazildi va aniq siyosiy dastur rivojlantirilishi e'lon qilindi. SHu orqali Evropa Ittifoqi birinchi marta Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlari borligini bildirdi. Evropa Ittifoqi uchun bu mintaqada o'zining foydali qazilmalari, Evropa va Osiyoni hamda Uzoq SHarqni ham bog'laydigan tarkibiy qism va kelajakda rivojlanish yo'lida beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan, shu bilan birga xalqaro uyushgan jinoyatchilik uchun (asosan narkotrafik, qurol-yarog' va xalqaro terrorizmning yangi ko'rinishidagi xavf-hatar uchun) katta darvoza sifatidagi vazifasini o'zlari xohlamagan holda bajarmoqda. SHuning uchun mintaqada o'z manfaatlarini boshqa davlatlar ham (Rossiya, AQSH, Xitoy,

---

<sup>20</sup> O'zbekistonda Respublikasi hukumat portali.

eron va Turkiya) izlamoqdalar. Mintaqada esa Evropa Ittifoqi bilan yanada ko‘proq sohalarda hamkorlik qilish istaklari mavjud. Energiya resurslaridan foydalanish uchun hamkorlik ilish istagi ustivor hisoblanadi. O‘zaro hamkorlik bitimlarini imzolashdan ham asosiy maqsad mazkur munosabatlarga huquqiy kuch berishdir.

Johannes Reissner Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro aktyor- larning tutayotgan strategiyasini quyidagicha baholaydi: “Evropaning mazkur mintaqada faoliyati uchun aniq strategiyasi va vositasi ham mavjud emas. AQSH esa bu mintaqaga uchun aniq va uzoq muddatga mo‘jallangan strategiyasini ishlab chiqqan va tegishli vositaga ham ega”.

Markaziy Osiyo davlatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ushbu davlatlarda qonun chiqarish shakllari, fuqarolik jamiyatini qurish, saylov standartlariga rioya qilish kabi talablar qo‘yilgan. Alexander Rahr fikriga ko‘ra: “Evropa Ittifoqi o‘zining yangi hamkorlaridan g‘arbiy Evropadagidek demokratiya modelini qabul qilishlariga umidvor bo‘lib, ulardan inson huquqlarini to‘liq ta‘minlaydigan va ratifikatsiya qilingan shartnomaga amal qilishga majbur e‘tmoqda”. Muammo shundan iboratki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan Evropa Ittifoqi o‘rtasida bir necha shartnoma va bitimlar imzolangan, lekin ularga rioya qilinmayotganligi tekshiruv va kuzatuvlar natijasida ma‘lum bo‘lgan. 1999 yil noyabr oyida Istanbulda bo‘lib o‘tgan yuqori darajadagi EXHT anjumanida O‘zbekiston va Qozog‘iston terrorizmga qarshi keskin kurash maqsadida xalqaro markaz tashkil e‘tishni va uning byurosi uchun Toshkentni taklif etdilar. Evropa Ittifoqi davlatlari bu masalada bir qarorga kelgunlaricha buyuk davlatlardan biri bu masalada tashabbusni o‘z qo‘llariga olishga ulgurdi.<sup>3</sup> YIning Markaziy Osiyo masalasida bunday uzoq vaqt biror fikrga kelishi bu mintaqada AQSH o‘zining manfaatlarini ta‘minlaydigan strategiyasini qabul qilishiga olib keldi.

Xalqaro hamjamiyat (Evropa Ittifoqi ham shu qatorda) O‘zbekiston orqali harbiy va gumanitar yordamni 2001 yil 11 sentabrdan keyin Afg‘onistonga yo‘naltirishni dolzarb va muhim deb hisoblaydi. O‘zbekistonning bu masaladagi sa‘yi-harakatlari Evropa Ittifoqi tomonidan ham ma‘qullandi va bu davlat bilan

aloqalar yanada yaxshlandi. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi bayonotida aytilishicha, Afg'onistondagi va unga qo'shni davlatlardagi sharoit terrorizmning tarqalishi, bunga yo'l qo'ymaslik uchun Markaziy Osiyo davlatlari oldida yangi vazifalar mavjud va birgalikda rivojlanishdagi yangi imkoniyatlar yaratilgan.

Ispaniyaning Vazirlar kengashi raisi J.Pique ham Evropa Ittifoqi O'zbekiston va Markaziy Osiyoga yordam ko'rsatish tadbirlarini kelajakda yanada rivojlantirish lozim degan fikrda. Bu fikr Evropa Komissiyasi raisi muovini Catherine Day tomonidan ham ma'qullangan edi.

Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari AQSH ning Afg'onistondagi harbiy harakatlarini qo'llab-quvvatladilar. Bu tadbirlar orqali Evropa Ittifoqi o'zining Markaziy Osiyoda uzoq muddatli hamkorlik qilishda manfaatlari mavjudligini bildirdi.

Markaziy Osiyoda 2000-2006 yillar uchun TACIS-dasturini davom ettirilishi ham Evropa Ittifoqining mintaqadagi hamkorlik munosabatlarining jiddiyligidan dalolat beradi.

2001 yil 11 sentabrdagi terroristik harakatlardan keyin Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasidagi tutayotgan siyosatiga o'zgarishlar kiritish kerak deb topdi. Germaniya Federativ Respublikasi ushbu siyosiy o'zgarishlarda faol qatnashdi. Islom fundamentalizmining Afg'onistonda faollashuvini, Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishini Markaziy Osiyo davlatlari ham Evropa Ittifoqi ham xohlamasligi -Evropa Ittifoqining tashqi siyosatiga o'zgartirishlar kiritdi. Markaziy Osiyo Evropaga jug'rofiy jihatdan uzoq bo'lsada, e'ndi siyosiy jihatdan yaqin bo'lib qoldi.

Evropa Ittifoqining boshqa mintaqaviy etakchi davlatlarga, masalan, AQSH, Xitoy, Eron, Turkiya va Rossiyaga nisbatan hamkorlik darajasi chegaralangan. Lekin YI mintaqada ko'plab dasturlarni amalga oshirmoqda: TACIS, Iste'mol mollarini etkazib berish, Reabilitatsiya, Demokratiya, INOGATE, TRACECA, Atrof-muhitni muhofaza qilish, YAdroviy va narkotik moddalarga qarshi kurash dasturlari va boshqalar.

2003 yilning yanvar oyida Evropa Ittifoqi tomonidan O‘zbekistonning mintaqadagi boshqa qo‘shni davlatlar bilan birgalikda bildirgan „Evropaga narkotik moddalarning olib kirilishiga va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash“ loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.<sup>21</sup> Bu kurashda mintaqa davlatlari o‘zaro hamkorlik qilsalar maqsadga e‘rinish mumkinligi aytili.

Evropa Ittifoqi O‘zbekistondan demokratiya, davlatchilikda qonun ustivorligi, inson huquqlari va matbuot e‘rkinligi, mamlakatda, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashning asosiy omili b‘olgan bozor iqtisodiyotiga kirish hamda Evropa investitsiyasi va tadbirkorlari uchun qulay sharoit yaratishni davom ettirishni xohlaydi. Evropa-O‘zbekiston hamkorlik kengashida noharbiy yadro mollari savdosi to‘grisidagi bitim imzolandi. SHu davrgacha O‘zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlik bitimi asosida olib borilmoqda edi. O‘zbekiston tomonidan kelajakdagi munosabatlar ushbu bitim asosida davom e‘ttirish istagi ma‘lum qilindi.

Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi hamkorlik siyosatini yorituvchi deyarli barcha manbalar rejaviy istak-xohishlar va „quruq va‘dalar“ bilan chegaralanib qolganligi sababli biz mazkur maqolani tayyorlashda ba‘zi bir qiyinchiliklarga uhradik. 2001 yilning 11 sentabridan keyin ham bu munosabatlarda juda katta ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi deb ham ta‘kidlay olmaymiz. Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan munosabatlaridagi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini faqatgina 1995 yilga kelib amalga oshira boshladi. Evropa Ittifoqi o‘zining siyosiy loyihalarini xavf-xatarni sezgandagina bajarayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, Evropa Ittifoqini sharq tomon kengaytirish natijasida kelajakdagi sharqiy chegaralarda yangi xavf-xatar (narkotik moddalar savdosi, qochoqlarning chegara atrofida ko‘plab yig‘ilib qolishi, Islom fundamentalizmi)ning mavjud bo‘lishi. Bundan tashqari Afg‘onistondagi Tolibon harakatining yana „jonlanishi“ mumkinligi va bu harakat qo‘shni Markaziy Osiyo

---

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi

davlatlariga o‘tib “avj” olishi ehtimoli Evropa Ittifoqidan xalqaro siyosatda faol bo‘lishni taqozo etmoqda. SHu sababli Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan munosabatlarini yanada yaxshilash, kelajakdagi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olish kabi havfsizlik siyosatini kuchaytirmoqda. Evropa Ittifoqi Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni va salohiyatidan unumli foydalanishi kerak. Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi asosiy manfaatlaridan biri bu mintaqadagi davlatchilik qurilishi jarayonini qo‘llab-quvvatlash va barqarorlikni ta‘minlashdir. Evropa Ittifoqining mintaqadagi faoliyati cheklanganligi bu mintaqaga boshqa xalqaro aktyorlar kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Lekin shunga qaramasdan, ba‘zi tadqiqotchilarning ta‘kidlashlaricha, Evropa Ittifoqining mintaqadagi dasturlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘ziga xos ravishda “bo‘shliqni to‘ldirib turibdi”. Ilmiy jihatdan tadqiq etilganda, Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi faoliyatiga ikki xil ta‘rif berish mumkin. Birinchidan, Evropa Ittifoqi va unga a‘zo davlatlar Markaziy Osiyoga nisbatan o‘zlarining munosabatlariga ijobiy baho bersalar, ikkinchidan, Evropa Ittifoqi o‘zining yuqori darajadagi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan mintaqada dominantlik qila olmayapti. SHu narsa ma‘lumki, Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mintaqasida hamon bir butun aktyor sifatida ham harakat qila olmayapti. Bugungi kunga qadar Evropa Ittifoqining mintaqada diplomatik vakolatxona maqomida faoliyat ko‘rsata oladigan yagona vakolatxonasi mavjud e‘mas. Hozircha Evropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan “yopiq”ligicha qolmoqda.

Bu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Evropa Ittifoqiga a‘zo davlatning O‘zbekiston bilan ikki tomonlama munosabatlari nisbatan faol va samarali bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mamlakatda demokratik jamiyat asoslarini mustahkamlash va xalqaro maydondagi mavqeini yanada kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosati doirasida xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli ikki tomonlama aloqalari tobora kengayib bormoqda.

## ***1.2 O‘zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi***

Ana shunday hamkor tashkilotlar sirasiga Evropa Ittifoqini ham kiritish mumkin. Zero, mamlakatimiz bilan mazkur tashkilot o‘rtasidagi munosabatlarda siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy-insonparvarlik aloqalari hamda mintaqaviy va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash kabi masalalar ustuvor yo‘nalishlardandir. O‘zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi bilan munosabatlarning asosi 1992 yil 15 aprelda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Evropa hamjamiyatlari komissiyasi (EHK) o‘rtasida O‘zaro anglashuv to‘g‘risidagi memorandumning imzolanishi orqali yaratildi. 1994 yil 16 noyabrda tomonlar o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi.

1996 yil aprel oyida Evropa Ittifoqi Komissari X.Van den Bruk O‘zbekistonga tashrif buyurdi va mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul qilindi. 1996 yil iyun oyida Evropa Ittifoqining Florensiyada bo‘lib o‘tgan davlat rahbarlari darajasidagi sammiti chog‘ida O‘zbekiston va Evropa Ittifoqi o‘rtasida o‘zaro siyosiy muloqot yo‘lga qo‘yilib, SHerikchilik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi aloqalarining har tamonlama rivojlanishida muhim huquqiy poydevor yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil noyabrda Belgiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida Evropa Hamjamiyatlari Komissari J.Santer va Evroparlament raisi K.Xensh bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. 2010 yilning 15-16 noyabr kunlari Evropa Ittifoqining taraqqiyot bo‘yicha komissari A.Piebalgs rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Tashrif asnosida u Prezident Islom Karimov bilan muzokaralar o‘tkazdi.<sup>22</sup>

---

<sup>22</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti veb-sahifasi

2011 yil 24 yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Bryusselga amalga oshirgan rasmiy tashrifi tomonlar o‘rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Tashrif chog‘ida Evropa Ittifoqi O‘zbekiston Respublikasi bilan turli sohalarda teng va o‘zaro sheriklikka asoslangan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini namoyish etdi. Tashrif doirasida Evropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti J.M.Barrozo va Evropa Ittifoqining energetika bo‘yicha komissari G.Ettinger bilan muzokaralar o‘tkazildi.

Muzokaralar chog‘ida Evropa Hamjamiyatlari komissiyasi rahbari O‘zbekistonning dunyoda etakchi o‘rinlardan birini egallagan iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga alohida urg‘u berdi. SHuningdek, u 2010 yil 12 noyabrda Prezident Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida bayon etilgan “mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” Evropada katta qiziqish bilan qarshi olinganini qayd etdi.

Evropa Ittifoqi O‘rta Osiyodagi transchegaraviy daryolarnig suv manbalaridan foydalanish borasida pragmatik yondashuv tarafdori bo‘lib, manfaatdor tomonlarning suv va energetika masalalarida o‘zaro hamjihatlikda hamkorlik qilish bo‘yicha ekologik muvozanatni saqlash hamda transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan adolatli va oqilona foydalanishga doir barqaror va oshkora mexanizmlarni ishlab chiqishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tashrif davomida O‘zbekistonda Evropa Ittifoqi Delegatsiyasini ta‘sis etish to‘g‘risidagi bitim, O‘zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi o‘rtasida energetika sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum hamda Evropa Ittifoqi komissiyasining 2011-2013 yillarga mo‘ljallangan texnik yordam ko‘rsatish bo‘yicha indikativ loyihalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi memorandum imzolandi.<sup>23</sup>

---

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi.



Tashrif yakunlariga ko'ra aytish mumkinki, u O'zbekiston va Evropa Ittifoqi o'rtasidagi aloqalarning ulkan salohiyatini ochishda keng imkoniyatlar yaratadi hamda ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun yuqori texnologiyalarni etkazib berish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ilmiy-texnikaviy aloqalarni kengaytirish orqali Evropa Ittifoqining mamlakatimizdagi iqtisodiy islohatlar va tizimli o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishga tayyor ekanini ko'rsatadi.

O'zaro munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asosi, yuqorida ta'kidlangan ikki tomonlama hujjatlar bilan bir qatorda SHerikchilik va hamkorlik to'g'risidagi hamda Atom energiyasidan tinch maqsadda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlarni ham o'z ichiga oladi. SHerikchilik va hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi beshta qo'shma muassasa faoliyat yuritib kelmoqda. YA'ni, Hamkorlik kegashi, Hamkorlik qo'mitasi, Parlamentlararo hamkorlik qo'mitasi, Savdo va investitsiyalar bo'yicha yordamchi qo'mita, Adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa masalalar bo'yicha yordamchi qo'mita shular jumlasidandir.

Mazkur muassasalarning vazifalari tegishli sohalar bo'yicha munosabatlarning amaldagi holatini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ularni yanada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar va Evropa Ittifoqidagi ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq masalalar, O'rta Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va hamkorlik qilish, shuningdek, har ikkala tomonning manfaatlariga mos keladigan xalqaro masalalar bo'yicha fikr almashishdan iboratdir. Evropa Ittifoqi O'zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy sherigi bo'lib, mamlakatimizning tashqi savdo aloqalarida ikkinchi o'rinni egallaydi. 2010 yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 1965,0 million AQSH dollarini tashkil etdi. SHu jumladan, eksport - 547,8 million AQSH dollari, import - 1418,0 million AQSH dollaridan iborat bo'ladi. O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2009 yilgi

ko'rsatkich bilan qiyoslaganda, 1,2 foizga o'sdi. SHu bilan birga, ikki tomonlama savdo-sotiqni kengaytirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjud.

YUrtimizda Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan kelgan sheriklar ishtirokida 821 korxonada foaliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 612 tasi qo'shma korxonada bo'lib, 209 tasi 100 foizlik Evropa mablag'i asosida ish olib borayotir.<sup>24</sup> O'zbekiston Evropa Ittifoqi tomonidan xorijiy mamlakatlar uchun yaratilgan eng ko'p qulaylik tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega davlatlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish maqsadida Evropa Ittifoqi 1992 yildan buyon respublikamizda Evropa Hamjamiyatlari komissiyasining texnikaviy yordam loyihalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston mazkur hamkorlik doirasida Evropa Ittifoqining chegaralar xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashtirilgan BOMKA, narkotik moddalarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan KADAP, transport masalalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan TRASEKA, energetika masalalari bo'yicha INOGEYT kabi mintaqaviy dasturlarida, shuningdek, ta'lim yo'nalishidagi TEMPUS va ilmfan yo'nalishidagi Ettinchi doiraviy dasturi kabi ixtisoslashgan loyihalarida faol ishtirok etadi.

Evropa Ittifoqi tashabbusi bilan 2004 yilda tashkil topgan "Evropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo" mintaqalararo muloqoti doirasida tashqi ishlar vazirlari darajasida to'rtta uchrashuv o'tkazildi. Ularda 2007 yil 21 iyunda Bryusselda Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va hukumatlar rahbarlari tomonidan tasdiqlangan "Evropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo: yangi sheriklik strategiyasi" (Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga oid strategiyasi) nomli konseptual hujjatni ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur hujjatning taqdimoti 2007 yil 30 iyun kuni Berlinda o'tkazildi. SHuningdek, Parij va Bryusselda "Evropa Ittifoqi - Markaziy Osiyo" tashqi ishlar vazirlari darajasidagi

---

<sup>24</sup> Birlashgan Millatlar Tashkiloti veb-sahifasi

forumlar tashkillashtirilib, ularda mintaqalararo hamkorlikka oid dolzarb masalalar muhokama qilindi.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi va geosiyosiy ahamiyati, barqarorligi hamda so‘nggi yillarda erishgan iqtisodiy taraqqiyotining yuqori sur‘atini inobatga olgan holda, Evropa Ittifoqi ushbu Strategiyani to‘laqonli amalga oshirishda mamlakatimizga mintaqadagi ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida qaraydi.

2011-2013 yillar mobaynida Evropa Hamjamiyatlari komissiyasi yurtimiz hamda butun mintaqaga qishloq xo‘jaligi va qishloq joylarni, ikki tomonlama savdo-sotiq, kichik va o‘rta biznes, energetika, atrof-muhit, fan va ta‘lim kabi sohalarni rivojlantirish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, chegaralar va bojxona xavsizligini ta‘minlash masalalarini hal etishda ko‘mak berishni rejalashtirmoqda.

2011 yil 7 aprel kuni tashqi ishlar vazirlari darajasida Toshkentda o‘tkaziladigan “Evropa Ittifoqi-Markaziy Osiyo” uchrashuvi Evropa Ittifoqi va O‘rta Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqalararo siyosiy muloqotni yanada jadallashtirish va mustahkamlash jarayonida navbatdagi muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Unda Evropa Ittifoqining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik bo‘yicha yangi strategiyasining bugungi kungacha bo‘lgan holati, mintaqa davlatlari hamda Evropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarning istiqbollari va boshqa bir qator o‘zaro manfaatli dolzarb masalalar muhokama etilishi ko‘zda tutilmoqda.

### ***I.3. O‘zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida g‘arbiy Evropa mamlakatlarining ahamiyati***

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach milliy manfaatlarga mos mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Respublikamiz xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a‘zosiga aylandi.

“O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir”<sup>25</sup> deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz Islom Karimov. Darhaqiqat, tashqi siyosat bobida mustaqillik yangi sahifa ochdi. O‘zbekiston tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng tashabbuskori va faoli sifatida o‘zini namoyon qilmokda.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvida Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini yo‘lga qo‘yish va tobora chukurlashtirish alohida o‘rin tutadi. 1996 yil 21 iyunda Florensiya shahrida imzolangan O‘zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o‘rtasidagi "SHerikchilik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim", uning 1999 yil 1 iyuldan kuchga kirgani mamlakatimizning Evropa Ittifoqi davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarning huquqiy negiziga aylandi.

O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar aloqalari yildan-yilga rivojlanib, chukurlashib bormoqda. Bugungi kungacha respublikamizda Evropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Evropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxonalar ishlayapti,

---

<sup>25</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo‘shimcha ma‘lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

ulardan 111 tasi yuz foizlik Evropa kapitaliga ega. 1995-2002 yillarda Evropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd. AQSH dollarilik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 2002 yilda 1 mlrd. 65,8 mln. AQSH dollarini, 2003 yilda esa 1,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.<sup>26</sup>

O‘zbekiston Respublikasining G‘arbiy Evropada ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya bilan o‘zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda.

Xususan, O‘zbekiston-Buyuk Britaniya munosabatlarining asosi 1993 yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ushbu mamlakatga buyurgan tashrifi chog‘ida yaratilgan. Prezidentimiz Buyuk Britaniyaga tashrifi chog‘ida qirolicha Elizaveta II, bosh vazir J.Meyjorlar bilan uchrashdi. Safar davomida O‘zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida shartno-ma, sarmoyani o‘zaro ragbatlantirish va himoyalash to‘g‘risida bitim, havo yo‘llarini ochish to‘g‘risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. Safar chog‘ida Prezidentimizning mashhur Rotshildlar banki hamda Evropa tiklash va taraqqiyot banki rahbarlari bilan uchrashuvi ham bo‘ldi, ular bilan o‘zaro hamkorlik haqida bitimlar tuzildi. Evropa qayta tiklash va taraqqiyot banki O‘zbekistonda oltin qazib olish korxonalarini kurish uchun 150 mln. AQSH dollari ajratishga qaror qildi. Tashrif chog‘ida O‘zbekiston va “Lonro” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan oltin biznesi haqidagi bitim amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. SHuningdek, Liverpool paxta assotsiatsiyasi rahbarlari bilan O‘zbekiston paxta tolasini jahon bozorida sotish masalalari bo‘yicha muzokaralar olib borildi.<sup>27</sup>

Bugungi kunda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmokda. Mamlakatlar o‘rtasida muntazam ravishda turli darajadagi tashriflar

---

<sup>26</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

<sup>27</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

amalga oshirilmokda. Oxirgi bir necha yil davomida Buyuk Britaniyaning qirkdan ziyod delegatsiyalari O‘zbekistonga tashrif buyurgan. Tomonlar tashki siyosiy mahkamalar o‘rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg‘oniston bo‘yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Komilov rahbarligidagi delegatsiyaning 2013 yil 19-22 noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan tashrifi davlatlararo aloqalarni faollashtirishdagi muhim voqea bo‘ldi.

Ikki davlat o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik o‘zaro aloqalarning istiqbolli yo‘nalishlaridan sanaladi. 2010 yil avgustida O‘zbekiston parlamentida Buyuk Britaniya parlamenti bilan hamkorlik bo‘yicha Oliy Majlis guruhi tuzilgan. 2010 yil 22 sentyabrda esa Oliy Majlis guruhi bilan "Britaniya-O‘zbekiston" Umumpartiya parlament guruhi o‘rtasida “Anglashuv memorandum” imzolandi. Savdo va sanoat bo‘yicha O‘zbekiston-Britaniya kengashi savdo-iqtisodiy munosabatlarning samarali mexanizmi bo‘lib, uning 20-yubiley majlisi Londonda 2013 yil 20-22 noyabrda bo‘lib o‘tdi<sup>28</sup>.

2012 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi savdo aylanmasi 206,3 million dollarni tashkil etib, shundan eksport 110,2 million dollar, import esa 96,1 million dollarga teng bo‘ldi. 2013 yil yanvar-iyul oylarida o‘zaro savdo hajmi 60,6 million dollarni tashkil etib, eksport 23,2 million dollarga, import 37,4 million dollarga teng buldi.

SHuningdek, madaniy-gumanitar xamkorlik, jumladan, ta’lim sohasida ham izchil rivojlanmokda. Toshkentda 2002 yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda YUqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonning Germaniya bilan ikki tomonlama aloqalari keng ko‘lamli xarakterga ega bo‘lib, turli jabhalarni qamrab olgan. Hamkorlikning shartnomaviy

---

<sup>28</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

va huquqiy bazasi yaratilgan. Ikki mamlakat o'rtasida turli darajadagi siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy (1993, 1995 va 2001), GFR prezidenti R.Gerzogning O'zbekistonga davlat (1995) va GFR kansleri G.SHryoderning rasmiy (2002) tashriflari amalga oshirilgan. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 11 raundi o'tkazilgan. SHuningdek, parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohalarida hamda mudofaa vazirliklari yo'nalishida hamkorlik faol rivojlanmokda.

Ikki mamlakat tadbirkorlari va rasmiy doiralari o'rtasidagi aloqalar yildan-yilga kengayib bormokda. 1997 yilda O'zbekistonda 55 ta Germaniya kompaniyalarining vakolatxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsatkich 80 taga etdi. Ularning eng yiriklari "Rastr", "Groteks" firmalari Germaniyaning "Geydelberg" firmasi texnologiyasi asosida ishlamokda, "Namangan qog'oz" O'zbekiston-Germaniya-Rossiya ko'shma korxonasi, "Xobos TAPO", "Xiva Karpet" va boshqalar. 2003 yilda germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida engil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika sanoati, transport va boshqa sohalarda tashkil etilgan 138 ta korxonalar faoliyat ko'rsatdi, ulardan 40 tasi 100 foizli Germaniya kapitaliga ega. O'zbekis-tonga kiritilayotgan Germaniya sarmoyalari hajmi 2001 yildayoq 1 mlrd. AQSH doplaridan oshdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2001 yilda 283,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.<sup>29</sup>

Germaniya O'zbekistonning Evropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylangan. 2012 yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-german tovar aylanmasi hajmi 497,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilning 9 oyi davomida ushbu ko'rsatkich 424,9 mln. dollarga etdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi moliyaviy va texnikaviy hamkorlikning umumiy hajmi 313,9 mln. evrodan oshgan.

---

<sup>29</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

O'zbekistonda nemis madaniyati va tilini o'rganishga qiziqish katta. Nemis tili respublikada eng ko'p tarkalgan chet tillari orasida ikkinchi o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda oliy ta'lim sohasida Germaniyaning 20 dan ortiq oliy o'quv yurtlari bilan sheriklik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, talabalar, mutaxassislar va pedagog kadrlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Ikki tomonlama madaniy-gumanitar munosabatlarni rivojlantirishda Toshkent va Berlin, Samarkand va Bremen, Buxoro va Bonn shaharlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning Evropadagi ishonchli sheriklaridan yana biri hisoblangan Ispaniya davlati bilan ham hamkorlik aloqalari rivojlanib bormokda. 2003 yil yanvar va 2009 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti IAKarimovning Ispaniyaga rasmiy tashriflari bo'lib o'tdi. Ispaniya tashki ishlar vaziri M.Moratinos 2009 yil O'zbekistonga tashrif buyurdi.

Ispaniya Tashki ishlar vaziri X.M.Garsiya Margalio taklifiga ko'ra, 2013 yilning 4-7 noyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Tashki ishlar vaziri boshchiligidagi delegatsiya Ispaniyaga tashrif buyurdi. Tashrif davomida tashki ishlar vazirliklari siyosiy maslahatlashuvlari o'tkazildi.<sup>30</sup>

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ispan tili fakulteti faoliyat yuritmokda. Mazkur universitetning Madrid, Granada, Alcala de Enares va Malaga universitetlari bilan hamkorlik aloqalari jadal rivojlanmokda.

O'zbekiston Italiyani Evropadagi uzok, muddatli va istiqbolli hamkori sifatida ko'radi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti IAKarimovning 1996 yil iyun va 2000 yil noyabrdagi Italiyaga bo'lgan rasmiy tashriflari o'zbek-Italiya aloqalariga zamin yaratdi. 1997 yil may oyida Italiya Prezidenti O.Skalfaronining O'zbekistonga javob tashrifi uyushtirildi. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy muloqot olib borilmoqda. 2010 yil oktyabr oyida Rimda tashki ishlar vazirlari darajasida siyosiy maslahatlashuvlarning to'rtinchi raundi bo'lib o'tdi.

---

<sup>30</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.



2011 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida "O‘zbekiston-Italiya" parlamentlararo hamkorlik guruhi tashkil etilgan. Italiya parlamentining Deputatlar palatasida esa "Italiya-O‘zbekiston" do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

2012 yil iyun oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Italiya parlamentining Deputatlar palatasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.<sup>31</sup>

2012 yil mart oyida O‘zbekiston va Italiya o‘rtasida 2012-2015-yillar uchun mo‘ljallangan "Madaniy hamkorlik dasturi" tuzildi. Uning doirasida universitet va maktab ta’limi, madaniyat, san’at va boshqa sohalarda hamkorlik ko‘zda tutilgan. 2009 yildan boshlab Toshkent shahrida Turin politexnika universiteti faoliyat yuritib kelmokda.

2013 yil yanvar oyida Samarkand shahri hokimiyati va Florensiya provinsiyasi ma’muriyati o‘rtasida "Do‘stlik va xamkorlik shartnomasi" imzolangan.

Fransiya O‘zbekistonning Evropadagi muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. 1993 yil 28-30 oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Fransiyaga qilgan tashrifi chog‘ida mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga asos solgandi.

O‘zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik "Kredit Kommersian de Frans" banki o‘rtasida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta’minlash ko‘zda tutildi. Taniqli "Elfakiten" neft-kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997 yil 22 avgustda ishga tushdi. Bu-gungi kunda korxonada benzin, kerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg‘isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari o‘zlashtirildi.<sup>32</sup>

---

<sup>31</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

<sup>32</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada rivojlanib bormokda. O'zbekiston Respublikasi tashki ishlar vaziri A.Komilovning 2012 yil oktyabrida Parijga va Fransiya tashki ishlar vaziri L.Fabiusning 2013 yil martda O'zbekistonga tashriflari ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Tomonlar o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 8 raundi o'tkazilgan. Oxirgi raund 2013 yilning mart oyida Toshkentda bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 2008 yildan, Qonunchilik palatasida esa 2010 yildan boshlab parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyat ko'rsatmokda.

Fransiya Senatida «O'zbekiston -O'rta Osiyo» do'stlik guruhi, Milliy assambleyada esa «Fransiya-O'zbekiston» do'stlik guruhlari faoliyat olib bormokda.

2008 yil iyunda O'zbekiston Ombudsmani va Fransiya Huquq Himoyachisi o'rtasida hamkorlik bitimi imzolandi.

2012 yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-fransuz tovar aylanmasi hajmi 277,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilning 9 oyi davomida ushbu ko'rsatkich 254,3 mln. dollarga etdi.

Fransiyada «Temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat ko'rsatmokda. SHuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatildi.

O'zbekistonning Finlandiya, Avstriya, Belgiya, SHveysariya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, CHexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Evropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatilgan va kengayib bormokda. SHveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Evropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat - SHveysariyadagi vakolatxonasiga aylandi. 1995 yil oktyabrda Jenevada "O'zbekistonda xususiylashtirish: hamkorlik uchun

imkoniyatlar", noyabr oyida Londonda o'tgan "O'zbekistonda biznes" mavzularidagi konferensiyalarda iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi. SHtutgarda bo'lib o'tgan "Buyuk ipak yo'li merosi: O'zbekiston" ko'rgazmasi O'zbekistonning aql-ziyo sohasida jahonda tutgan o'rniga va salohiyatiga berilgan katta baho bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyo, jumladan, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bugungi kunda bu aloqalar yanada kengayib, rivojlanib bormoqda.

## ***II-BOB. O‘zbekiston Respublikasining g‘arbiy Evropa mamlakatlari bilan madaniy va ilmiy - texnikaviy aloqalari***

### ***II.1 Buyuk Britaniya Qirolligi va Fransiya Respublikasi bilan olib borilayotgan madaniy sohadagi o‘zaro aloqalar***

O‘zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik 1993 yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Buyuk Britaniyaga qilgan tashrifi chog‘ida imzolangan «Savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida», «Kapital qo‘yilmalar sarflanishini rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish haqida» hamda «Ikki yoqlama soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida»gi shartnomalarga asoslanadi.

1996 yil yakunlariga ko‘ra Buyuk Britaniya O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar aylanmasi hajmi bo‘yicha 2-o‘rinda turadi (Germaniyadan keyin). O‘zbekistondan Buyuk Britaniyaga paxta tolasi, qimmatbaho toshlar, qora metallar, volfram va ulardan yasalgan buyumlar yuborilsa, Buyuk Britaniyadan mexanik va elektr asbob-uskunalar, qand-shakar va qandolat mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar, mineral yoqilg‘i, farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan dori-darmon, qog‘oz va karton, mebel, optik priborlar va apparatlar, tamaki, sut mahsulotlari, kimyoviy birikmalar, noorganik kimyo mahsulotlari keltiriladi. O‘zbekiston Respublikasi 1992 yilda jahon paxta savdosi me‘yorlari va qoidalarini muvofiqlashtirib turadigan muhim nohukumat tashkiloti bo‘lgan Liverpool paxta uyushmasiga a‘zo bo‘ldi.<sup>33</sup> O‘zbekiston shu uyushma bilan birgalikda mamlakatimizda paxtani sertifikatsiyalashning xalqaro tizimini joriy etish bo‘yicha ish olib bordi. Keyingi yillarda ikkala mamlakatning turli darajalardagi delegatsiyalari o‘zaro tashriflari natijasida hamkorlik tobora yaxshilana bordi. 1994 yil 14 oktyabrda Londondagi metallar bozori uyushmasi Zarafshon affinaj (oltin tozalash) zavodiga eng maqbul

---

<sup>33</sup> <http://www.ambafrance-uz.org//Fransiya> va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar tarixi

oltin quymalar maqomini tasdiqlovchi sertifikat berdi, bu esa O‘zbekistonning tamg‘asi butun dunyoda eng yuqori sifat belgisi ekanini bildiradi. 1996 yil oktyabrda esa mazkur uyushma huzurida yuqori sifatli kumush quymalar ishlab chiqaruvchi Olmaliq kon-metallurgiya kombinati vakolatxonasi rasmiylashtirildi.

1997 yil 4 – 12 oktyabr kunlari Toshkentda «Britaniya festivali» o‘tkazildi. Festival dasturi doirasida Buyuk Britaniyaning 30 ga yaqin kompaniyasi mahsulotlari ko‘rgazmasi, «Britaniya qirollari xonadoni merosi» ko‘rgazmasi, to‘qimachilik mashina uskunalari va me‘morlikka bag‘ishlangan seminar o‘tkazildi, Buyuk Britaniya filmlari namoyish qilindi. O‘zbekiston – Britaniya savdo va sanoat kengashining majlislari muntazam ravishda o‘tkazilib turibdi. Bu majlislarda iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalari, savdo-sotiq, iqtisodiyot va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish istiqbollari muhokama qilinadi.

Ayrim yirik firma, kompaniya va banklar o‘rtasidagi hamkorlik ham rivojlangan. «British Eyrveyz» kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan 1992 yil 31 dekabrda boshlab «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviatsiya kompaniyasining samolyotlari haftasiga 4 marta Londonga qatnab turibdi.<sup>34</sup>

1994 yilda «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviatsiya kompaniyasi Buyuk Britaniya transport departamenta bilan kelishib, Toshkent – Manchester – Toshkent o‘rtasida muntazam reyslar bajarish huquqini oldi.

«O‘zyog‘moytamakisanoat» uyushmasi xorijiy sarmoya yordamida o‘z korxonalarini yangilab va ta‘mirlab, jahon andozalari darajasiga etkazish maqsadida «Kraun» kompaniyasi bilan shartnoma tuzdi. SHartnomaga binoan Qo‘qon yog‘-moy kombinatini ingliz sarmoyasi hisobiga qayta qurib, asbob-uskunalarini zamonaviylashtirishga kirishildi.

O‘zbekistonda tamaki sanoatini rivojlantirish uchun tamaki bargi etishtirish, uni qayta ishlash va sigareta ishlab chiqarish bo‘yicha “British American Tobacco” kompaniyasi bilan qo‘shma korxonalar barpo etish to‘g‘risidagi bitimga muvofiq 232

---

<sup>34</sup> O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. - T.: “SHarq”, 2000

mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ sarflandi. Bu mablag‘ asosan Toshkent tamaki fabrikasini, Urgut tamaki fermentatsiyasi fabrikasini rekonstruksiyalash va modernizatsiyalashga, Samarkand tamaki fabrikasini qurishga, ijtimoiy tadbirlarga va mutaxassislar tayyorlashga ishlatildi. Toshkent tamaki fabrikasida «Saratov» va «Xon» sigaretalarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

1996 yil oxirida Surxondaryo viloyatining Xandiz konida rangli metallarni qidirish haqida «**Oxiz Kezopg\$e\$ Sogrogagyup**» korporatsiyasi bilan dastlabki bitim imzolandi. Bitimga ko‘ra, Buyuk Britaniya firmasi yil davomida o‘z mablag‘i hisobidan konni uzil-kesil o‘rganishi, rangli metallarni kompleks qazib olishni tashkil etishga oid texnikaviy-iqtisodiy asoslamalarni tayyorlashi, so‘ngra taxm. 100 – 150 mln. AQSH dollari qiymatiga ega bo‘lgan loyiha asosida qo‘rg‘oshin, rux, mis, kumush qazib chiqaradigan qo‘shma korxonaga barpo etildi.<sup>35</sup>

1997 yilning 10 iyulida Buyuk Britaniyaning mazkur korporatsiyasi bilan Navoiy viloyatidagi Aristantov va Balpantov konlarini o‘rganib, aniqlash to‘g‘risida ham dastlabki bitim imzolandi. O‘zbekiston g‘arbiy qismida geologik ma‘lumotlarni birgalikda o‘rganish borasida ham hamkorlik o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligida «Meredit Jons» kompaniyasi bilan paxta seleksiyasi, uni etishtirish va qayta ishlashning ilg‘or usullari asosida ishlaydigan agrofirma barpo etish rejasi mavjud. Farg‘ona viloyati YOzyovon tumanining xo‘jaligini o‘z ichiga oladigan bu firma paxta hosildorligini ko‘paytirishga, tola sifatini oshirishga va tuproq unumdorligini yaxshilashga olib borishi lozim.

«O‘zbektelekom» konserni «Jeneral Plassi Telekommunikeyshnz» («JiPiTi») kompaniyasi bilan birgalikda Toshkent uchun zamonaviy raqamli aloqani tashkil etuvchi «Buzton» qo‘shma korxonasini barpo qildi. Bu loyiha muassislar mablag‘i, shuningdek eksport kreditlarni kafolatlash departamenta sug‘urtasi asosida olingan kredit hisobidan ta‘minlandi.

---

<sup>35</sup> [http://www.ambafrance-uz.org//Fransiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar tarixi](http://www.ambafrance-uz.org//Fransiya%20va%20O%27zbekiston%20o%27rtasidagi%20munosabatlar%20tarixi)

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Buyuk Britaniyaning 5 ta banki bilan va xorijiy banklarning Londondagi 11 ta bo'limi bilan vakillik munosabatlari o'rnatdi. «Barklayz Bank» tijorat to'lovlari bo'yicha asosiy vakil hisoblanadi. Navoiy viloyatidagi oltin konini o'zlashtirish bo'yicha «Nyumont-Zarafshon» loyihasi amalga oshirilishi Milliy bank bilan «Barklayz Bank» qo'shma faoliyatining yo'nalishlaridan biri bo'ldi. «Barklayz Bank» 161 mln. fransuz franki (salkam 32 mln. AQSH dollari miqdoridagi) kreditni «Sosete Jeneral» banki bilan birgalikda yangi «Metropol» mehmonxonasi qurilishi uchun 10 yil muddatga, ikkinchi kreditni 1,7 mln. AQSH dollari miqsorida Toshkent to'qimachilik kombinatiga Buyuk Britaniyaning «Krosrol» firmasi yuboradigan asbob-uskunalar haqini to'lash uchun berdi.<sup>36</sup>

Toshkent shahar hokimligining kapital qurilish bosh boshqarmasi «**Napdu Nau1**» firmasi bilan birgalikda diplomatiya korpusi xodimlari, xorijiy firmalarning vakillari yashaydigan 22 ta 2 qavatli kottej qurishni mo'ljallagan. Bu erda kichik supermarket, kafe, bar, 2 ta tennis korti bapo etildi.

O'zbekiston Respublikasida Buyuk Britaniya sarmoyasi ishtirokidagi 115 ta korxonalar mavjud, shundan 34 tasida ingliz kapitali 100% ni tashkil etadi. Buyuk Britaniyaning 36 ta firmasi vakolatxonasi rasmiylashtirilgan

O'zbekiston Respublikasining Evropada katta iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Fransiya Respublikasi bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormokda.

Xususan, ikki tomonlama aloqalar rivojlanishining tamal toshlari O'zRespublikasi Prezidenti I. Karimovning 1993 yil 28 – 30 oktyabr kunlari Fransiyaga davlat tashrifi paytida qo'yildi.

Prezident I. Karimov Fransiya Prezidenti F. Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar yuritdi. F. Mitteran qabul marosimida nutq so'zlab: “Hozirgi siyosiy

---

<sup>36</sup> [http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar tarixi](http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya%20va%20O%27zbekiston%20o%27rtasidagi%20munosabatlar%20tarixi)

vaziyatda Markaziy Osiyoda etakchi o'rinni egallab turgan mustaqil O'zbekiston SHarq bilan G'arb o'rtasida ishonchli ko'prik bo'lishi mumkin. Ko'p asrlik tarix teran an'analarga ega bo'lgan, insoniyatni faxriga aylangan allomalarni etkazib bergan O'zbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan. Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatingiz biz uchun yanada yaqin bo'lib qoldi", deb ta'kidladi. Bu Vatanimiz to'g'risida, uning shon –shuhratini ulug'lovchi xolisona, oliyanoblik bilan berilgan bahodir. Safar natijasida Parijda O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasida "Do'stlik va hamkorlik to'g'risida" shartnoma, madaniyat, ilmiy – texnikaviy hamda maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim imzoladi.

Mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi Respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi, shuningdek, O'zbekistonning Evropa boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

SHundan so'ng 1994 yil aprelda Fransiyaning sobiq prezidenti F. Mitteran eng rivojlangan etti davlat rahbarlari orasida birinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi. Prezident I. Karimovning Fransiya 1996 yil apreldagi ikkinchi tashrifi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov hamda Fransiya prezidenti Jak SHirakning 1996 yil iyunda Florensiyada Evropa Ittifoqi rahbarlarining sammitidagi, 2002 yil davlat rahbarlarining NATOga a'zo davlatlar rahbarlarining Pragadagi sammitida uchrashuvlari ikki tomonlama alokalarni yangi darajaga ko'tarish imkoniyatini berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1996 yil 21-24 apreldagi ikkinchi tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi. I. Karimovning Fransiya Respublikasi Prezidenti J. SHirak bilan uchrashuvi chog'ida ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama etildi. Ushbu tashrif davomida Prezidentimiz YUNESKO qarorgohida tashkil qilingan «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'limning rivoji» mavzusidagi



ko'rgazmada ishtirok etdi. Bu uchrashuvlar chog'ida imzolangan turli shartnoma va konvensiyalar hamda turli moliyaviy protokollar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni kengayib borishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasida o'zaro tovar aylanmasi 2003 yilda 72,3 mln. AQSH dollari, shundan eksport 24 mln., import 48,3 mln. dollarni tashkil etdi. Eksportda paxta tolasi 74,4%, to'qimachilik mahsuloti 13,4%, kimyo mahsulotlari 8,8%, agrosanoat majmuasi mahsulotlari 2,9%ni, importda esa elektronika va elektr uskunalari 26,2%, kimyo mahsulotlari 23,3%, mexanika uskunalari 13,7%, farmatsevtika va parfyumeriya mahsulotlari 13,6%, maishiy texnika 7,9%, transport vositalari 5,5%, oziq-ovqat mahsulotlari 3,6%ni tashkil etdi<sup>37</sup>.

2003 yilda O'zbekistonda Fransiyaning 14 kompaniyasi (jumladan: "Elf – akten" neft – kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqalar) va ikki banki ("Kredi Kommersial de Frans" va "Societe Jeneral") ishladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda 15 qo'shma korxonalar, 100% fransuz sarmoyasi bilan ikki korxonalar faoliyat olib boradi. 2004 yilning 14 -16 yanvarida O'zbekiston va Fransiya savdo-iqtisodiy hamkorlik hukumatlararo komissiyasining 2-majlisi bo'lib o'tdi. Ikki davlat hamkorligi rejalariga muvofiq, «Societe Jeneral» bankining kredit hisobiga «Buxoro viloyatida suv ta'minotini yaxshilash» dasturi (8,1 mln. AQSH dollari) amalga oshiriladi va 2 ta «Boing 767-300 EK» samolyoti (187,9 mln. AQSH dollari) sotib olindi.<sup>38</sup>

O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik "Kredit Kommersian de Frans" banki o'rtasida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi. Taniqli "Elfakiten" neft-kimyo konserni, "Texnip" firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurilishiga kelishildi. Natijada ushbu zavod 1997 yil 22 avgustda ishga tushdi. Bugungi kunda korxonalar benzin, kerosin, suyultirilgan gaz, dizel

---

<sup>37</sup> [http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar tarixi](http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya%20va%20O'zbekiston%20o'rtasidagi%20munosabatlar%20tarixi)

<sup>38</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. - T.: "SHarq", 2000

yoqilg‘isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari o‘zlashtirildi.<sup>39</sup>

Davlatlararo munosabatlarni elchixonalar, vakolatxonalar, konsulxonalar faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas. SHu borada O‘zbekiston – Fransiya o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarining bugungi rivojida ikki davlatda faoliyat ko‘rsatayotgan elchixonalarining roli beqiyosdir. Parijda O‘zbekistonning Fransiyadagi elchixonasi 1994 yil ochilgan bo‘lib, unda bugunni kunga qadar quyidagi shaxslar O‘zbekistonning Fransiyadagi elchisi sifatida faoliyat ko‘rsatdilar: Akmal Saidov (1994-1996 yy.), Tohir Mamajonov (1997-2003 yy.), Xamidulla Karomatov (2003-2006 yy.), Ravshan Alimov (2006-2009 yy.), Bahromjon A‘loev (2009-2012 yy.), hozirda Ravshan Usmonov faoliyat olib bormoqda.

Toshkent shahrida Fransiyada O‘zbekistondagi elchixonasi 1992 yildan beri faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Elchixonada Jan-Pol’ Vezian (1992-1995 yy.), Jan-Klod Rishar (1995-2000 yy.), Jak-Andrey Kostiy (2000-2004 yy.), Jan-Bernar Art (2004-2007 yy.), Xyug Perne (2007-2010 yy.), Fransua Got’e (2010-2013 yy.), 2013 yildan Jak-Anri Ols Fransiyaning O‘zbekistondagi elchisi bo‘lib faoliyat yuritdilar.<sup>40</sup>

2008 yil iyunda O‘zbekiston Ombudsmani va Fransiya Huquq Himoyachisi o‘rtasida hamkorlik bitimi imzolandi.

Fransiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Fransua Gote 2010 yil 10-fevral kuni Tashqi ishlar vazirligida qabul qilindi. Uchrashuvda ikki davlat aloqalarini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Statistika ma‘lumotlariga qaraganda, 2011-yilda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 354 mln dollarni tashkil qilgan. Bu 2010-yilgi ko‘rsatkichga nisbatan ikki barobardan ko‘p.

---

<sup>39</sup> <http://www.gazeta.uz/uz/2012/02/13/fransiya/>

<sup>40</sup> <http://www.gazeta.uz/uz/2012/02/13/fransiya/>

Uchrashuvda O'zbekiston va Fransiya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 20 yilligi munosabati bilan rejalashtirilgan tadbirlarga tayyorgarlik bilan bog'liq masalalar ham muhokama qilindi.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalari yanada rivojlanib bormokda. O'zbekiston Respublikasi tashki ishlar vaziri A.Komilovning 2012 yil oktyabrida Parijga va Fransiya tashki ishlar vaziri L.Fabiusning 2013 yil martda O'zbekistonga tashriflari ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Tomonlar o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 8 raundi o'tkazilgan. Oxirgi raund 2013 yilning mart oyida Toshkentda bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida 2008 yildan, Qonunchilik palatasida esa 2010 yildan boshlab parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyat ko'rsatmokda.

Fransiya Senatida «O'zbekiston -O'rta Osiyo» do'stlik guruhi, Milliy assambleyada esa «Fransiya-O'zbekiston» do'stlik guruhlari faoliyat olib bormokda.

2012 yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-fransuz tovar aylanmasi hajmi 277,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2013 yilning 9 oyi davomida ushbu ko'rsatkich 254,3 mln. dollarga etdi.<sup>41</sup>

Fransiyada «Temuriylar davri san'ati va tarixini o'rganish» hamda «Avitsenna-Fransiya» assotsiatsiyalari faoliyat ko'rsatmokda. SHuningdek, Samarqand va Lion, Xiva va Versal, Buxoro va Ruey-Malmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatildi. Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi bir qator sohalarda, xususan, chorvachilik, vinochilik, nodir metallar, o'simliklar asosidagi yangi dori-darmonlar, neft va gaz mahsulotlari va boshqa sohalarda hamkorlik o'rnatish imkoniyatlarini o'rganmoqda. Toshkent texnika universiteti bilan Parij universiteti o'rtasidagi hamkorlik haqidagi shartnoma koinotdan olinadigan agrosuratlarni o'rganuvchi o'zbek-fransuz ilmiy markaziga asos bo'ldi.

---

<sup>41</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

## ***II.2. O‘zbekiston Respublikasining g‘arbiy Evropa mamlakatlari bilan ilmiy – texnikaviy hamkorligi.***

Germaniya bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida rasmiy munosabatlar 1992 yildan boshlangan bo‘lsa ham, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar uzoq davrga borib taqaladi. XX asr boshlarida o‘zbek chevarlari orasida nemislarning «Zinger» tikuv mashinasi nihoyatda mashhur bo‘lgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o‘rtasida teng huquqli munosabat o‘rnatildi. O‘zbekistonning G‘arbiy Evropadagi birinchi elchixonasi 1993 yil Bonn shahrida ochildi. O‘sha paytdanoq o‘zaro aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo‘lga qo‘yildi. Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik vazirining 1992 yil avgustda Germaniyadagi rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun asos yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1993 yil aprelda Germaniyaga qilgan tashrifi o‘zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga muhim omil baxsh etgan burilish voqeasi bo‘ldi. Ushbu tashrif yakunida imzolangan «Kapital qo‘yilmalarni amalga oshirishga ko‘maklashish va ularni o‘zaro himoyalash to‘g‘risida» shartnoma, «Ilmiy tadqiqot va mutaxassislar jamg‘armasini vujudga keltirish» hamda «Madaniy hamkorlik» to‘g‘risida bitimlar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilab berdi.

Hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtirish va tezroq amalga oshirish maqsadida 1993 yil Germaniyada idoralararo komissiya hamda 1995 yil may oyida O‘zbekiston – Germaniya doimiy ishchi guruhi tuzildi. Mazkur komissiya va guruh muntazam ravishda yig‘ilishlar o‘tkazib, investitsiyalarni kafolatlash va sug‘urtalash, loyihalarni moliyalash, xususiylashtirishga ko‘maklashish, qimmatli qog‘ozlar bozorini vujudga keltirish kabi muhim masalalarni hal qilib kelmoqda. 1993 yil Toshkentda Germaniya texnikaviy hamkorlik jamiyatining vakolatxonasi ochildi. Jamiyat faoliyati tufayli bozor iqtisodiyotiga oid seminar va o‘quv kurslari

o‘tkazish yo‘li bilan mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiy qonunchilik, xususiylashtirish, kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof muhitni muhofaza qilish, shahar yo‘lovchi transportiga doir qonun va nizomlar ishlab chiqish, «Onalik va bolalikni himoya qilish» tadbirlari bo‘yicha maslahatlar berish dasturi amalga oshirildi.

1994 yilda Germaniya savdo-sanoat palatalari birlashmasi Toshkentda Germaniya iqtisodiyoti vakili byurosini ochdi. Uning asosiy vazifasi o‘zbek va nemis ishbiarmonlarini axborot bilan ta‘minlashdan iborat. O‘sha yilning iyunida Toshkentda K. Adenauer jamg‘armasining vakolatxonasi ochildi. Gannover xalqaro yarmarkasi ishlab turgan davrda (1994 yil aprel) o‘tkazilgan «O‘zbekiston iqtisodiyoti kunlari» GFR jamoatchiligi va ishbiarmonlarini g‘oyat qiziqtirdi.

GFR Prezidentining 1995 yil 11 – 13 aprelda Toshkentga qilgan tashrifi davomida ikkala mamlakatning ishbiarmonlari ishtirokida qo‘shma biznes-seminar o‘tkazildi. Keyingi yillarda O‘zbekiston banklari, Fanlar akademiyasi va turli vazirliklari hamda muassasalari xodimlari uchun amaliy mashg‘ulotlar, konferensiyalar va foydali uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. 1995 yilda SHtutgart shahridagi Linden muzeyida «O‘zbekiston. Buyuk Ipak yo‘li merosi» mavzusida ochilgan ko‘rgazma O‘zbekiston – Germaniya hamkorligini rivojlantirishda sezilarli voqea bo‘ldi. 1996 yil 18-19 iyunda «Germaniya-Markaziy Osiyo» jamiyati, «Doyche Bank», Frankfurt-Mayn magistrata va O‘zbekiston Respublikasining GFRdagi elchixonasi tashabbusi bilan Frankfurt shahrida «Germaniyada O‘zbekiston iqtisodiyoti kunlari» xalqaro anjumani o‘tkazildi.<sup>42</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Germaniyaning «AKA», «KfV», «Berliner Bank» va «Doyche Bank» kabi banklari bilan o‘nga yaqin bitimlari tuzgan. SHu bitimlar asosida kamida 778,7 mln. nemis markasi miqdorida turli loyihalarni mablag‘ bilan ta‘minlash boshlandi.

---

<sup>42</sup> www.mfa.uz // Xalqaro hamkorlik // O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O‘zbekiston-Yevropa davlatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Germaniyaga 2001 yilning 2–5 aprel kunlari qilgan tashrifi ikki mamlakatning o'zaro munosabatlarida sifat jihatidan yangi davr boshlanganini bildirdi. Tashrif davomida moliya, sayyohlik, fan-texnika, narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash kabi sohalar bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirishni nazarda tutuvchi o'n to'rtta hujjat imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 1997 yilda mamlakatimizning dunyo mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmlari bo'yicha Germaniya 4-o'rinni (Rossiya, Koreya Respublikasi, SHveysariyadan keyin), Evropa mamlakatlari orasida esa 2-o'rinni (SHveysariyadan keyin) egalladi. 2000 yilda o'zaro savdo hajmi 291,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.<sup>43</sup>

O'zbekistondan Germaniyaga paxta tolasi, mis va undan yasalgan buyumlar, boshqa rangli metallar etkazib beriladi va turli xizmatlar ko'rsatiladi. Germaniyadan O'zbekiston Respublikasi ga asbob-uskuna, baliq mahsulotlari, qand-shakar va qandolat mahsulotlari, bug'doy uni, kimyoviy mahsulotlar, qora metall va undan tayyorlangan buyumlar, transport vositalari, saryog' va o'simlik yog'i, optik asbob va apparatlar, sut mahsulotlari, qog'oz va karton, plastmassa va undan yasalgan buyumlar, uchish apparatlari va boshqalar etkazib beriladi va turli xizmatlar ko'rsatiladi. Engil sanoat, paxta va uning chiqitlarini qayta ishlash, tibbiyot va farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, yuk va yo'lovchi tashish, avtoservis, ilmiy ishlanmalar, savdo-sotiq va boshqa sohalarda bir nechta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi huzurida Germaniyaning 40 ta firma va kompaniyasi vakolatxonalarini rasmiylashtirilgan. Ular qatorida «Daymle Bens», «Simens», «Alkatel», «Tissen», «Lyuftganza», «BASF», «Salamander» kabi jahonga mashhur firmalar bor.

---

<sup>43</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

«Landtexnik-Tashkent», «CHirkom», «Uz-Vinkler», «Grasso», «TashVirt», «Intermed Ekosan», «Nambum» va boshqa qo‘shma korxonalar qishloq xo‘jaligi uskunalari tayyorlash, qishloq xo‘jaligi mashinalari va yo‘l texnikalari, telefon tarmoqlariga xizmat ko‘rsatish, novvoychilik uskunalari olib kelish va ularni montaj qilish, tibbiy dorilarni etkazib berish, go‘sh-t-yog‘ mahsulotlari va qog‘oz ishlab chiqarmoqda.

O‘zbekiston – Germaniya munosabatlarida Toshkent va Berlin shaharlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ikki davlat poytaxtlarining hamkorligi faqat iqtisodiy sohani emas, ijtimoiy-madaniy sohalarni ham keng qamrab olgan. Germaniya poytaxti Bonndan Berlinga ko‘chirilgach, 2001 yil 3 aprelda Berlinda O‘zbekiston elchixonasining yangi binosi ochildi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov qatnashdi.

Ikki tomonlama munosabatlarda madaniyat, san‘at, fan, xalq ta‘limi, ommaviy axborot vositalari, sog‘liqni saqlash va sport sohalaridagi hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Germaniyada O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasida Berlin, Potsdam, Dortmund, Bonn, SHtuttgart, Gamburg, Myunxen, Gannover, Visbaden shaharlarida O‘zbekistonning musiqa, tasviriy va teatr san‘ati keng namoyish etilganligi buning yorqin misolidir. Mamlakatimiz teatr va kino ustalari Tyubing, Berlin, Kotbus, Manxaym, Myulxaymda o‘tkazilgan festivallarda ham faol ishtirok etishdi. O‘z navbatida respublikamizda ham Germaniya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tdi.

Ikki tomonlama hamkorlikning rivojiga K. Adenauer, F. Ebert jamg‘armalari, Gyote nomidagi institut, Germaniya oliy o‘quv yurtlari, universitetlari rektorlari konferensiyasi, «Doyche Velle» telekompaniyasi, «Germaniya-O‘zbekiston» do‘stlik jamiyati, «EPOG» Berlin jamoat-madaniy birlashmasi katta hissa qo‘shmoqdalar. Adenauer jamg‘armasi ko‘magida Sant-Augustin shahrida «Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni» mavzusida ilmiy konferensiya, «Orol ekologik fojiasining milliy va xalqaro aspektlari» simpoziumlari o‘tkazildi. Jurnalistlar guruhi va nemis ijodiy ziyolilari vakillari tashabbusi bilan Orol haqida

hujjatli film olishga kirishildi. Qoraqalpog‘iston bolalar kasalxonalariga dori-darmonlar va tibbiyot uskunalari uchun mablag‘ yig‘ish tashkil qilindi va bu hududda suv tozalash inshootlarini yaratish uchun mablag‘ to‘plandi.

O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarkand davlat universitetining Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyottingen shaharlaridagi universitetlar bilan hamkorligi samarali rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida nemis millatiga mansub 25 mingga yaqin kishi yashaydi.

### **O‘zbekiston — Italiya munosabatlar**

Italiya O‘zbekiston suverenitetini tan olganidan so‘ng ikkala mamlakat o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga kirishildi Italiya «O‘zbekiston Respublikasi bilan Evropa Itgifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risida» 1996 yil Florensiyada imzolangan bitim o‘zaro munosabatlarning huquqiy negizini yaratdi Italiya 1996 yil iyunida va 2000 yil noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Italiyaga, 1997 yil mayda Italiya Prezidenti, 1997 yil sentyabrda, Italiya Bosh vazirining O‘zbekiston Respublikasiga tashriflari yakunida iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalardagi hamkorlik, ikkiyoqlama soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik, transport sohasidagi hamkorlik, sayyohlikni rivojlantirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash to‘g‘risida muhim bitim va shartnomalar imzolandi Italiya rahbarlariga hamroh bo‘lib kelgan savdo-sanoat doiralarining namoyandalari O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati bilan tanishdilar va o‘zbek tadbirkorlari uchun biznes-seminar o‘tkazdilar. Mazkur tadbirlarning samarasi o‘laroq ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro mol etkazib berish 1992 yilgi 19 mln. 461 ming 800 dollardan 2000 yilda 112,8 mln. dollarga etgan. Italiya O‘zbekiston bilan tovar aylanmasi hajmi jihatidan 10-o‘rinda, Evropa Ittifoqi mamlakatlari orasida Germaniya va Buyuk Britaniyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi.<sup>44</sup>

O‘zbekiston Italiyaga paxta tolasi, rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar, ipak, ip gazlama, kalava ip va boshqa mahsulotlar sotsa, Italiyadan asbob-

---

<sup>44</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo‘shimcha ma‘lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.



uskuna, mebel, plastmassa, gusht va baliq mahsulotlari, sariyogʻ va oʻsimlik yogʻi, kiyim-kechak kabi mahsulotlarni sotib oladi. Savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish sohasidagi qoʻshma tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1994 yilda Italiya Tashqi savdo instituti va Tashqi savdo uyushmasi rahbar va mutaxassislari Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi hamda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Fargʻona, Namangan viloyatlari rahbarlari bilan amaliy uchrashuv oʻtkazdilar. 1994 yil iyunda Oʻzbekiston viloyatlari, shaharlari va tumanlari hokimlarining Italiyaga tashriflari chogʻida ular Italiya savdo palatalari va uyushmalari, sanoat korxonalarini rahbarlari bilan uchrashdilar. Uchrashuvlarda meva-sabzavot mahsulotini qayta ishlash, tabiiy tosh qazib olish va qayta ishlash, toʻqimachilik, oltinni qayta ishlash, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish sohalaridagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi.

Oʻzaro hamkorlikka Italiya firma va kompaniyalari gʻoyat qiziqib qaraydi. CHunonchi, Oʻzbekiston va Italiya sayohatchilarini oʻzaro kutib olish, joʻnatish, ularga xizmat koʻrsatish sohasida shartnoma tuzilgan. «Oʻzbekiston havo yoʻllari» milliy aviakompaniyasi oʻzaro qatnovni yoʻlga qoʻygan. «Qoraqalpoq qurilish materiallari» aksiyadorlik birlashmasi «Pedrini» firmasidan marmar taxtachalar ishlab chiqaradigan liniyalar va «Ravelli» firmasidan tabiiy toshdan buyumlar ishlab chiqaradigan texnologiya liniyalari sotib oldi «Tekint» kompaniyasi bilan «UzDE-UAvto» oʻrtasida engil avtomobillar uchun yassi oyna ishlab chiqarish zavodini qayta qurish haqida bitim tuzildi.

«Oʻzbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi neft konlarini qidirib topish va ishlatish, turli texnologiya asbob-uskunalarini neft va gaz korxonalariga keltirib oʻrnatish borasida italyan firmalari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻygan. Jumladan, SHoʻrtan, Koʻkdumaloq korxonalarida noyob italyan asbob-uskunalarini oʻrnatildi. SHahrisabz, Gʻazalkent konserva zavodlarida «Sasib Fud» firmasining tomat pastasini yangicha qadoqlaydigan liniyalari ishga tushirildi.

«O‘zmevasabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasining «Jefit S.R.L.» konnerni bilan imzolagan bitimiga ko‘ra tijorat, vositachilik, marketing, lizing ishlari o‘tkazib turiladi.

«O‘zbekmebel» davlat aksiyadorlik birlashmasi yangi texnologiya va asbob-uskunalar xarid qilish yuzasidan Italiya firmalari bilan yaqin aloqa o‘rnatgan. 1994 yilda «Kosta» firmasidan parket va duradgorlik buyumlari ishlab chiqaruvchi texnologiya liniyasi sotib olindi. 1995 yilda «Nichem», «Fravol» firmalaridan xarid qilingan qurilmalar O‘zbekistondagi mebel firmalari mahsulotining sifatini oshirdi, mehnat unumdorligini ko‘tardi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari, «O‘zoziqovqatsanoat», «O‘zeltexsanoat» uyushmalari, «O‘zfarmsanoat» konserni, «O‘zbeksavdo» kompaniyasi, «Eg‘moytamakisanoat» uyushmasi ham italyan firmalari bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Italiyaning 14 banki bilan vakillik munosabati o‘rnatgan. Mazkur banklar O‘zbekistondagi ko‘pgina qurilishlarga moliyaviy mablag‘ ajratgan.

O‘zbekiston Respublikasida italyan kapitali ishtirokidagi 49 ta korxonalar va Italiya kapitati 100% bo‘lgan 5 ta korxonalar ro‘yxatga olingan. Bu korxonalar alkogolsiz ichimliklar, vino, trikotaj mahsulotlari, xalq iste‘mol mollari, muzqaymoq ishlab chiqarish, paxta chiqitlarini qayta ishlash, savdo-sotiq va vositachilik ishlari bilan shug‘ullanadi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi huzurida 4 ta italyan firmasining vakolatxonalari ham rasmiylashtirilgan.<sup>45</sup>

O‘zbekiston bilan Italiya o‘rtasida madaniy va ma‘rifiy sohalarda ham hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. 1997 yil mayda Italiya prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi vaqtida madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik haqida imzolangan bitim ikkala mamlakat xalqlarining tili va adabiyotini

---

<sup>45</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O‘zbekiston-Yevropa davlatlari

o'rganishga, olimlar va tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga, san'at, musiqa, raqs, teatr va kino ustalarining o'zaro muloqotlariga, arxeologiya hamda badiiy merosni o'rganish va saqlash sohasidagi ko'maklashuvga yordam beradi.

1998 yil aprelda Toshkentda bo'lib o'tgan zamonaviy musiqa 3-festivalida qatnashgan italyan artistlari «Ilhom» teatrida konsertlar berishdi va konservatoriyada namunali dars o'tkazishdi. SHu yilning iyunida A. Navoiy nomidagi Katta opera va balet teatrida J. Verdining «Rigoletto» operasi Sebastiano Mariya Salvato tomonidan sahnalashtirildi, noyabrda A. Navoiy nomidagi teatrdagi o'tkaziladigan Verdi festivalida qatnashish uchun kelgan italyan xonandasi Nunsii San-todirokko «Rigoletto» operasida Jilda rolini ijro etdi.

Italiya Tashqi ishlar vazirligi italyan tili va adabiyotini o'rganuvchi o'zbek talabalariga o'quv stipendiyalari ajratgan. O'zbekistonlik 7 talaba Italiya akademiyasi va konservatoriyalarida ta'lim oldi. Samarqand chet tillar instituti va O'zbekiston jahon tillari universitetida italyan tilidan dars berish uchun Italiyadan malakali muallimlar kelishdi.

1998 yil 13-27 mayda Toshkentdagi San'at muzeyida, 2-12 iyunda Samarqanddagi chet tillar institutida rassom Karlo Karr asarlari ko'rgazmasi, shu yili 25-26 oktyabrda Buxoroda, 31 oktyabrda Toshkentda italyan pianinotchisi Pomeransning konsertlari bo'lib o'tdi. 21-30 oktyabrda Milandagi Katolik universiteti olimlaridan iborat delegatsiya O'zbekistonda bo'ldilar.<sup>46</sup>

### **O'zbekiston — Ispaniya munosabatlari.**

O'zbekiston – Ispaniya o'rtasida XV asrdayoq aloqa o'rnatilgani, 1404 yilda Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixo Samarqandga kelgani va Amir Temur saltanati haqida esdaliklar yozgani tarixdan ma'lum.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Ispaniya bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda hamkorlik yo'lga qo'yila boshladi. Ikki mamlakat

---

<sup>46</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

rasmiy delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari chog‘ida hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy negizini yaratuvchi bir qancha hujjatlar kelishib olindi. Ikkala mamlakatning savdo-iqtisodiy aloqalari O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi bilan munosabatlari doirasida rivojlandi. O‘zaro tovar aylanmasi 2000 yilda 1999 yilga nisbatan 1,9 baravar oshdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Ispaniyaga eksporti 20,1 mln., importi 5,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. O‘zbekiston Ispaniyaga paxta tolasi, gazlama, kalava ip eksport qilsa, undan elektrotexnika va mexanika asbob-uskunalari, dori-darmon, qora metallar, plastmassa, keramika mahsulotlari sotib oladi. Ispaniya kompaniya va firmalari bilan hamkorlik sohasida Buxoro viloyati suv ta’minoti tizimini takomillashtirishga kirishildi. 15 mln. evro qiymatiga ega bo‘lgan bu loyiha Ispaniya hukumatining imtiyozli va tijorat krediti hisobidan amalga oshirildi. «O‘zmevasabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasi bilan «Altieri Vinikola» firmasi O‘zbekistonda vino ishlab chiqaradigan «YANIS» qo‘shma korxonasini barpo etdi. «O‘zfarmsanoat» konserni bilan Ispaniyaning «Krupak» kompaniyasi bint va jarrohlik dokasi ishlab chiqaradigan korxonaga barpo etish uchun 7,9 mln. evro miqdorida pul sarfladi. O‘zbekiston Respublikasida Ispaniya sarmoyasi ishtirokidagi 11 korxonaga tashkil etildi.<sup>47</sup> O‘zbekiston FA institutlari bilan Ispaniya Milliy tadqiqot kengashi o‘rtasida quyosh energiyasini fotoelektr usulida o‘zgartirish, yarim o‘tkazgichli materialshunoslik sohalarida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jahon tillari universiteti Ispaniyaning Granada, Madrid, Alcala de Enares va Malaga universitetlari bilan hamkorlik o‘rnatdi. Toshkentdagi shu universitetda ispan tili va madaniyati markazi ochilgan. Granada va Buxoro universitetlarining hamkorlik qilishi haqida kelishib olindi.

### **O‘zbekiston — SHveysariya munosabatlari.**

O‘zbekiston bilan SHveysariya o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilgach (1992), 1993 yil maydan Toshkentda SHveysariya elchixonasi faoliyat

---

<sup>47</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo‘shimcha ma’lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.

yurita boshladi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida tuzilgan hukumatlararo bitimga muvofiq, ikki mamlakat o'rtasidagi savdoda qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish tartibi belgilandi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — SHveysariya hukumatlararo komissiyasi ishlamokda. 2003 yilda ikki tomonlama tovar aylanmasi 217,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasidan SHveysariyaga paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip va boshqalar eksport qilinadi. SHveysariyadan elektr va mexanik jihozlar, farmatsevtika mahsulotlari kabilar keltiriladi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tufayli O'zbekiston Respublikasida SHveysariya sarmoyasi ishtirokida 77 korxonalar barpo etilgan. Ular orasida 57 qo'shma korxonalar, SHveysariya sarmoyasi 100% bo'lgan 20 korxonalar bor. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida SHveysariyaning 33 firma va kompaniyasi vakolatxonalarini ro'yxatga olingan. 1995 yildan Toshkentda «Kredi Sviss» banki vakolatxonasi ishlamokda. 1995 yil yanvardan SHveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Respublikasining Savdo ko'rgazma markazi faoliyat ko'rsatmokban. 2002 yildan SHveysariya elchixonasi huzurida hamkorlik bo'yicha SHveysariya byurosi ishlamokda. U ijtimoiy – iqtisodiy yo'nalish bo'yicha birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Ikki mamlakat o'rtasida astronomiya, fizika, biofizika, genetika, biokimyo, tarix, tibbiyot, ekologiya bo'yicha ilmiy loyihalalar hamkorlikda amalga oshirilmokban. Uni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, O'zbekiston milliy universiteti, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ilmiy ishlab chiqarish markazi, shuningdek, Bern, Jeneva, Syurix, Davos, Lozanna universitetlari ishtirok etmokban. Samarqand universiteti bilan Syurix, Bazeldagi universitetlar o'rtasida gumanitar va tabiiy fanlar masalalari bo'yicha aloqalar yo'lga qo'yilgan. 1999 yildan O'zbekistonda «O'zbekiston—SHveysariya» do'stlik jamiyati ishlamokban.

---

<sup>48</sup> [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari

## *Xulosa*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, O‘zbekiston hukumati o‘z milliy manfaatlariga mos tashqi siyosat yo‘lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish va xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatishga eng dolzarb vazifalardan biri deb qaradi. O‘zbekiston tarixida birinchi marta tashqi siyosat asoslari va uning bosh yo‘nalishlari qonun yo‘li bilan mustaxkamlandi.

Prezidentimiz O‘zbekistonning tashqi siyosati istiqbolini taoriflab shunday deydilar: “O‘zbekiston dunyo uchun ochiq, Biz ham dunyoning O‘zbekistonga katta qiziqish bilan qarayotganini his etmoqdamiz. Bir paytda O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga, markazga qaram izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi”.

“Xalqaro hamjamiyatda katta aks sado bergan, 2012-yilning sentabr oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun asosida aynan ana shunday yondashuvlar mujassamdir.

Mazkur konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy prinsiplari, strategik ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi va O‘zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomidir.

“O‘zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo‘lgan o‘zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko‘zlagan holda: turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo‘lishi haqida; o‘zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo‘yicha qat’iy pozitsiyaga ega bo‘lishi haqida va o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo‘l

qo‘ymasligi haqida; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplarini aniq-ravshan bayon etadi.

O‘zbekiston mafkuraviy tamoyillar sababli ro‘y berayotgan turli to‘qnashuvlarga o‘zining jalb etilishiga hamda qo‘shni davlatlar va hududlar bilan chegaralardagi qurolli mojarolar va keskinlik o‘choqlarida mamlakatimizning ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaydi, yaxshi qo‘shnichilikning, yuzaga keladigan nizolarni faqatgina tinch yo‘l bilan bartaraf etishning qat’iy tarafdoridir.”

O‘zbekiston mustaqillik tufayli umumjahon jarayonlariga qo‘shilib bordi. CHunki “mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog‘imiz uchun O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini taminlash zarur”

Mazkur btiruv malakaviy ishimizda O‘zbekistonning Evropa Ittifoki mamlakatlari bilan 1992-2015 yillardagi ilmiy, madaniy hamda iqtisodiy aloqalari batafsil yoritildi. SHuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik dasturlari, O‘zbekistonda olib borilayotgan ishlar va yurtimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rning ortib borishi o‘rganildi va shu asosda quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan so‘ng olib borgan tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarining takomillashib borishi prinsplari aniqlangan;
- O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarini boshlanishi va uning sabablariga aniqlik kiritilgan;
- Mazkur jarayonni O‘zbekistonning iqtisodiy-siyosiy va madaniy rivojlanishi uchun ta’siri va bu jarayonni takomillashib borishi tadqiq etilgan;
- O‘zbekiston va Evropa Ittifoki davlatlari hamkorligining madaniy va kommunikatsion aloqalarining rivojlanib borish tendensiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan;
- O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan manosabatlarini takomillashtirish yuzasidan xulosalar, tavsiyalar, nazriy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR**

### **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1992 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" – T. 1995.
4. Karimov I. A. O'zbekiston yo'li – jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
5. Karimov I. A. Mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik uchun. Toshkent. “O'zbekiston” 1995 y.
6. Karimov I. A. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. – T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
7. Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT 48-sessiyasida so'zlagan nutqi. – T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
8. Karimov I. A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1996 y. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
9. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
10. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lida. 4-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
11. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1997 y. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. – T.: “O'zbekiston” 1997 y.
12. Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1998 y.



13. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, – T.: “O'zbekiston”, 1999 y.
14. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda – T.: “O'zbekiston”, 1999 y.
15. Karimov I. A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: “O'zbekiston” 2000 y.
16. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, – T.: “O'zbekiston”, 2001 y.
17. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, – T.: “O'zbekiston”, 2002 y.
18. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 10 -jild, – T.: “O'zbekiston”, 2002 y.
19. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.
20. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: “Ma'naviyat” 2009 y.
21. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi ma'ruza. 19-jild, – T.: O'zbekiston, 2010.
22. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. 19-jild, – T.: O'zbekiston, 2010.
23. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvardagi qo'shma majlisidagi ma'ruza. 19-jild, – T.: O'zbekiston, 2010.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. 19-jild, – T.: O'zbekiston, 2010.
25. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. "O'zbekiston" 2011 yil.
26. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: "O'qituvchi", 2012 y.
27. Karimov I. A. Bizni yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Hurriyat/ 2011 yil. 8-dekabr.
28. Karimov I.A. BMT sammiti Miing yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutqi. // "Xalq so'zi". 2010 yil 22 sentyabr
29. Каримов И. А. Ўзбекистон йўли – жаҳон ҳамжамиятига қўшилиш йўли. – Т.: "Ўзбекистон", 1995 й
30. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (parlamenti) faoliyatining asoslari. Ma'lumotnoma-qo'llanma. - T., 2010.
31. Inson taraqqiyoti qanday o'lchanadi. – Qo'llanma. BMTTD. 2007.
32. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam / O'zbekcha nashrining ma'sul muharriri Saidov A.X.. – Toshkent: Adolat, 2004.
33. Inson huquqlari: parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T., 2007.
34. Azizxo'jaev A. Demokratiya xalq xokimiyati demakdir. – T.: "O'zbekiston" 1996 y.
35. Axmedov E.A. Saidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. (qisqacha ma'lumotnoma) – T.: "O'zbekiston", 1995 y.
36. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Asosiy omillar. Toshkent. 2002 yil
37. Hakimov R. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001 y.
38. Habibullayev N., Alimov O'. O'zbekiston madaniyat va san'ati dunyo e'tiborida // Moziydan sado, 2000. 1-2 sonlar.

39. I. Sobirov, S. Safaev, F. Otaxonov, O. Oqilov, F. Kim, M. Tillabayev. O'zbekiston: Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi. Amaliy qo'llanma. 2011.
40. Jo'raev N. va boshqalar. "O'zbekiston tarixi", – T., 1998 y.
41. Lafasov M. O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari. – T., 1995 y.
42. Landers, Kassi. Bolaning dastlabki rivojlanishi bo'yicha boshlang'ich kurs. UNICEF OTD Manba To'plami. 2004.
43. Murodov X., Muxammadiev N, Jamolov G. O'zbekiston Jahon Hamjamiyati safida. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000 y.
44. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi. – T.: "O'zbekiston", 1993 y.
45. O'zbekistonning yangi tarixi (Mustaqil O'zbekiston tarixi). 3-jild, – T.: "SHarq" 2000 y.
46. Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи . Т.: Шарқ, 2013.

#### **ELEKTRON MANBALAR**


47. [www.humandevlopment.uz](http://www.humandevlopment.uz)
48. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz) // Xalqaro hamkorlik // O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar // O'zbekiston-Yevropa davlatlari
49. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.
50. <http://www.ambafrance-uz.org/Fransiya> va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar tarixi.
51. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) // Qo'shimcha ma'lumotlar // Xalqaro aloqalarning rivojlanishi.
52. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi
53. [www.undp.org](http://www.undp.org)
54. [www.unaids.org](http://www.unaids.org)
55. [www.hdr.undp.org](http://www.hdr.undp.org)
56. <http://www.un.uz>

57. <http://www.unfpa.uz>
58. <http://www.undp.org/mdg/>
59. <http://www.un.org/millenniumgoals/>
60. <http://www.tashkent.unesco.org>
61. [www.unicef.org](http://www.unicef.org)
62. [www.who.int](http://www.who.int)
63. [www.wfp.org](http://www.wfp.org)
64. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
65. [www.fondforum.uz](http://www.fondforum.uz)
66. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

OSCE

Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ





Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг байроғи